

## XITOIY VA MARKAZIY OSIYO DAVLATLARI O'RTASIDA ENERGETIKA SOHASIDAGI HAMKORLIK MUAMMOLARI



<https://doi.org/10.5281/zenodo.7336637>

**Nigmanov Azizbek Ulugbekovich**

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti  
tayanch doktoranti

[azizbek.nigmanov@mail.ru](mailto:azizbek.nigmanov@mail.ru)

***Annotatsiya.** Ilmiy maqolada Xitoy va Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida energetika sohasidagi hamkorlik muammolari. avvalambor, Markaziy Osiyo mamlakatlarinig iqtisodiyotidagi ishtirokining o'rni o'rganilgan. Markaziy Osiyoga Xitoy sarmoyalari asosan xomashyo sanoatiga – kompaniyalarni sotib olishga, konlarni qidirish va o'zlashtirishga, energetika infratuzilmasini qurishga tushadi. Bog'langan kreditlar - "xom ashyo evaziga investitsiyalar" ajratish keng qo'llaniladi. Bu esa iqtisodiy va siyosiy jihatdan Markaziy Osiyo mamlakatlarini qaramligiga olib kelish ehtimolini oshiradi.*

***Kalit so'zlar:** Xitoy, Markaziy Osiyo, “Bir makon, Bir yo'l”, investitsiya, prognoz, O'zbekiston, Qozog'iston, Turkmaniston, Qirg'iziston, Tojikiston, China National Petroleum Corporation (CNPC), “China Sino-Pipeline International Company” MChJ, “Markaziy Osiyo-Xitoy” gaz quvuri*

## PROBLEMS OF ENERGY COOPERATION BETWEEN CHINA AND CENTRAL ASIAN COUNTRIES

**Nigmanov Azizbek Ulugbekovich**

doctoral student

Tashkent State University of Oriental Studies

[azizbek.nigmanov@mail.ru](mailto:azizbek.nigmanov@mail.ru)

***Annotation.** In the scientific article, there are problems of cooperation in the field of energy between China and the countries of Central Asia. first of all, the role of participation in the economy of Central Asian countries was studied. Chinese investments in Central Asia mainly go into the raw materials industry - buying companies, exploring and developing mines, and building energy infrastructure. Linked loans - "Investment for raw materials" allocation is widely used. This increases the possibility of bringing the Central Asian countries into dependence economically and politically.*

***Key words:** China, Central Asia, "One Place, One Way", investment, forecast, Uzbekistan, Kazakhstan, Turkmenistan, Kyrgyzstan, Tajikistan, China National Petroleum Corporation (CNPC), "China Sino- Pipeline International Company LLC, Central Asia-China gas pipeline*

Xitoy Markaziy Osiyodagi o'z rolini avvalambor, Markaziy Osiyo mamlakatlarinig iqtisodiyotidagi ishtirokida ko'radi. Bu Xitoyning asosiy mexanizmi, shuningdek, uning salohiyatli ta'siri. Dunyoning boshqa qismlarida o'z ishtirokini kengaytirishdan tashqari, Xitoy siyosati asosan o'zining iqtisodiy rivojlanish ehtiyojlaridan kelib chiqadi. Ichki iqtisodiy o'sishning yuqori darajasini saqlab qolish uchun Xitoyga yangi bozorlar va yangi resurslar kerak va bu, ayniqsa, energiya resurslariga tegishli. Markaziy Osiyo muhim uglevodorod resurslari hamda Xitoy eksporti

uchun yangi bozorlarni taklif etadi; va muhimi, Markaziy Osiyo Yevropa va uning bozorlariga muqobil quruqlikdagi yo‘l hamdir.

Markaziy Osiyoga Xitoy sarmoyalari asosan xomashyo sanoatiga – kompaniyalarni sotib olishga, konlarni qidirish va o‘zlashtirishga, energetika infratuzilmasini qurishga tushadi. Bog‘langan kreditlar - "xom ashyo evaziga investitsiyalar" ajratish keng qo‘llaniladi. Xitoy Markaziy Osiyo siyosatida mintaqadagi har bir davlatning o‘z manfaatlari uchun ahamiyatiga qarab tabaqalashtirilgan yondashuvga amal qiladi. Xitoy Markaziy Osiyo siyosatida mintaqadagi har bir davlatning o‘z manfaatlari uchun ahamiyatiga qarab tabaqalashtirilgan yondashuvga amal qiladi.

Xitoy o‘zining tabiiy resurslariga boy bo‘lgani uchun Markaziy Osiyoga qiziqish bildirmoqda. Xitoy sarmoyasining Markaziy Osiyo mamlakatlariga kiritilishining sabablaridan biri uning resurslariga qiziqishdir. Yaqinlik ham muhim, chunki Xitoy Markaziy Osiyo mamlakatlari infratuzilmasiga, foydali qazilmalarni o‘zlashtirish va rivojlantirishga ko‘plab sarmoyalarni tejaydi.

Xitoyning Markaziy Osiyodagi iqtisodiy strategiyasi “Bir makon, Bir yo‘l” loyihasi asosida amalga oshirish rejalashtirilgan bo‘lib, bu loyihada ikkita asosiy maqsad belgilab olingandir. Birinchidan, u xomashyo va boshqa foydali qazilmalar konlariga kirish imkoniyatiga ega bo‘lmoqda. British Petroleum ma‘lumoti bo‘yicha 2035 yilga borib Xitoy dunyodagi elektr energiyasining chorak qismini iste‘mol qilib, dunyodagi eng yirik energiya importchisiga aylanishini taxmin qilmoqda. Shu munosabat bilan Xitoy Markaziy Osiyoning tabiiy resurslariga, xususan, neft va gazga kirishga intiladi va bunda sezilarli yutuqlarga erishayotganini ko‘rishimiz mumkindir.

Markaziy Osiyo neftining asosiy zahiralari Qozog‘iston Respublikasida to‘planganligini hisobga oladigan bo‘lsak, o‘n yildan ortiq vaqt davomida Xitoy G‘arb kompaniyalarining aktivlarini sotib olib, mamlakatning neft va gaz sanoatidagi ishtirokini tizimli ravishda kengaytirib bormoqda. Hozirgi kunda Qozog‘iston neftini Xitoy iste‘molchilariga yetkazib berish uchun yiliga 20 million tonna quvvatga ega neft quvuri yotqizilgan bo‘lib, Markaziy Osiyodagi yirik neft loyihasi hisoblanadi.

Turkmaniston Xitoy bozoriga gaz yetkazib beruvchi hisoblanadi. XXI asrning birinchi o‘n yilligi oxirigacha turkman gazining butun hajmi Rossiyaga jo‘natilgan. 2009 yilda Xitoy mintaqadagi eng yirik gaz konlari guruhi - Galkanishni o‘zlashtirish uchun mablag‘ ajratdi va u quruqlikdagi turkman konlarini o‘zlashtirish imkoniyatiga ega bo‘lgan yagona xorijiy kompaniyaga aylandi.

Xitoyning O‘zbekistondagi ta’siri boshqa barcha Markaziy Osiyo mamlakatlariga nisbatan eng kichik bo‘lib qolmoqda. O‘zbekistonga Xitoydan qabul qilingan sarmoyalar nihoyatda oqilona sarflanadi, Xitoyning yirik TMK korxonalarini va Xitoy biznesi O‘zbekiston iqtisodiyotida ixcham va jamlangan.

Shu bilan birga, ushbu bosqichda mavjud vaziyatni o‘zgartirishi mumkin bo‘lgan yangi holatlar paydo bo‘ladi. Boshqacha aytganda, Xitoyning O‘zbekiston va butun Markaziy Osiyo mintaqasida sarmoyaviy ishtirokini jadal kengaytirish uchun shart-sharoit paydo bo‘lmoqda. Xitoyning O‘zbekistondagi investitsiya faolligiga kelsak, barqaror o‘sish tendentsiyasi kuzatilmoqda. Rasmiy statistik ma‘lumotlarga ko‘ra, bugungi kunda O‘zbekistonda Xitoy kapitali ishtirokida tashkil etilgan 1702 dan ortiq qo‘shma korxonalar, shuningdek, 73 dan ortiq Xitoy kompaniyasining vakolatxonalarini faoliyat yuritmoqda.

E’tiborlisi, O‘zbekistonda Xitoy sarmoyasining asosiy qismi iqtisodiyotning real sektoriga yo‘naltirilgani respublikani mintaqadagi boshqa mamlakatlardan ajratib turadi. Masalan, O‘zbekiston hukumati Xitoy tomonidan ajratilayotgan kredit va zaymlarni yuqori texnologiyali sanoatning yangi turlarini qurish va ishga tushirishga yo‘naltirishga harakat qilmoqda.

Xitoy o‘z maqsadlariga erishish uchun turli xil vositalardan foydalanadi. Birinchisi - investitsiyalar. Xitoy kompaniyalarining Markaziy Osiyo mamlakatlari korxonalarida ulush sotib

olishi haqida ketmoqda. Xitoy asosan tog‘-kon sanoatiga sarmoya kiritadi. Shunday qilib, hozirda Xitoy kompaniyalari Qozog‘iston neft qazib olishning va Qirg‘iziston oltin konlarining deyarli to‘rtidan bir qismi nazorat qiladi.

Yuqorida aytib o‘tilganidek, Qozog‘iston Markaziy Osiyoga Xitoy sarmoyasini jalb qilish bo‘yicha yetakchi davlat hisoblanadi. “Monitor of Chinese Investments in World” ma‘lumotlariga ko‘ra, Xitoyning Qozog‘istondagi “Bir kamar, bir yo‘l” tashabbusi (2013-yildan 2020-yilgacha) doirasidagi sarmoyalari va shartnomalarining umumiy hajmi 18,69 milliard AQSH dollarini tashkil qilgan. Bu mablag‘ning yarmidan ko‘pi, ya‘ni 9,53 milliard dollari energetika sohasiga, 3,81 milliard dollari transport sohasiga, 2,65 milliard dollari kimyo sanoatiga va 1,91 milliard dollari metallurgiyaga to‘g‘ri keldi.

Xitoyning neft va gaz importiga qaramligi o‘shishda davom etishini va Qozog‘istonning neft qazib olishda Xitoyning ulushi 24 foiz, gaz qazib olishda esa 13 foizni tashkil etishini hisobga olsak, Qozog‘iston (Turkmaniston bilan birgalikda) va Kelajakda Markaziy Osiyodan energiya resurslarini eksport qilishda Xitoy uchun muhim hamkor bo‘lib qoladi[1].

Xitoy milliy neft korporatsiyasi (CNPC) Qozog‘istonning neft va gaz sektoridagi eng yirik xorijiy investorlardan biridir. CNPC faoliyati qatoriga mamlakatning turli mintaqalarida neft va gaz bo‘yicha qator loyihalar, Qozog‘iston-Xitoy va Kenkiyak-Atirau quvurlari, Qozog‘iston-Xitoy gaz quvuri kiradi. 2013 yilda CNPC yirik Qashagan neft konining 8,33% aksiyasiga egalik qildi.

Qozog‘iston hukumati bir necha yillardan buyon 51 ta loyiha haqida gapirib kelmoqda, bu esa Xitoy tomonidan ishlab chiqarish quvvatlarining bir qismini – 51 korxonani Qozog‘iston hududiga o‘tkazish rejasini nazarda tutadi.

Boshqa tomondan, Olmaota viloyatida o‘rnatilgan quvvati 480 MVt bo‘lgan beshta elektr stansiyasi kaskadi Xitoyning Markaziy Osiyodagi eng yirik gidroenergetika loyihasi hisoblanadi. 1,5 milliard AQSH dollariga teng bu kelishuv 2018 yil dekabrda e‘lon qilingan, biroq moliyalashtirish faqat Xitoy banklari bilan 2020 yil yozi oxiriga kelib kelishib olindi[2].

Qozog‘iston hukumati 2015 yildan beri Xitoyning 50 dan ortiq investitsiya loyihalari (tog‘-kon, kimyo va neft-kimyo sanoatidagi Qozog‘iston-Xitoy qo‘shma korxonalar va boshqalar) ma‘lumot bermoqda.

2017 yilda “KAZNEX INVEST” milliy investitsiya va eksport agentligining vorisi sifatida tashkil etilgan “Kazakhstan Invest” AJ 2019 yil sentabr oyida mamlakatda 2015-yildan buyon amalga oshirilgan, umumiy qiymati 27,6 milliard dollar bo‘lgan 55 ta qozoq-xitoy qo‘shma loyihasining umumiy sharhini taqdim etdi. Ulardan 15 tasi amalga oshirilgan bo‘lsa, 11 tasi davom etmoqda, 29 tasi ko‘rib chiqilmoqda[3].

Asosiy e‘tibor neft va gaz sanoatiga qaratilgan bo‘lib, u yerda xitoylik aksiyadorlar ishtirokida ko‘plab qo‘shma korxonalar tashkil etilgan. Asosiy o‘yinchi - dunyoning 30 dan ortiq mamlakatlarida aktivlari va manfaatlariga ega bo‘lgan dunyodagi uchinchi yirik neft kompaniyasi China National Petroleum Corporation (CNPC). CNPC 1997 yilda Qozog‘istonning "Aktobemunaygaz" kompaniyasining ulushini sotib olgan va kompaniya aksiyalarining 85,42 foiziga egalik qiladi. Mamlakatdagi neft konlarini o‘zlashtirish bo‘yicha qator loyihalardan tashqari, CNPC ikkita neft quvurini (ulardan biri Qozog‘iston-Xitoy), shuningdek, Qozog‘iston-Xitoy gaz quvurini qurishda ishtirok etmoqda.

CNPC ning Qozog‘istondagi sho‘ba korxonalaridan biri CNPC (67%) va milliy "KazMunayGaz" OAJ (33%)ga tegishli bo‘lgan “PetroKazakstan” kompaniyalar guruhidir. “PetroKazakstan” neft va gaz konlarini sotib olish, qidirish, o‘zlashtirish va neft va gaz qazib olish, ayniqsa Qizilo‘rdadagi “Qumko‘l” konini (mamlakat janubida), shuningdek, neft va qayta ishlash mahsulotlarini sotish bilan shug‘ullanadi.

2019 yilda beri Qirg‘izistonda 400 ga yaqin Xitoy kompaniyasi va 170 Xitoy-Qirg‘iziston qo‘shma korxonasi faoliyat yuritmoqda[4]. 2013 yildan buyon Xitoyning Qirg‘izistonga kiritgan

sarmoyalari va shartnomalari 4,34 milliard AQSH dollariga baholanmoqda, shundan 2,5 milliard energiya sohasiga, 1,69 milliard transport sohasiga va 150 million metallurgiyaga yo'naltirilgan[5].

Qirg'iziston hukumat agentligining 2020-yil fevral oyida e'lon qilgan ma'lumotlariga ko'ra, Xitoy kompaniyalari mamlakatdagi barcha xorijiy investitsiyalarning qariyb uchdan bir qismini tashkil qiladi[6]. Shu bilan birga, so'nggi yillarda Xitoyning Qirg'izistonga kiritayotgan sarmoyasi kamayib borayotganini aytish kerak. Sababi xorijiy kompaniyalar o'z investitsiyalari xavfsizligidan xavotirda, mamlakatdagi siyosiy notinchliklar ularning faoliyatida qiyinchiliklar vujudga kelishidan xavf siramoqdalar[7].

Logistika va transport va qishloq xo'jaligiga rejalashtirilgan tog'-kon sanoatiga (karerlar va konlar) keyingi investitsiyalar bo'yicha qarorlar hali qabul qilinmagan, garchi hukumat bir necha yil oldin Xitoyning Digital Silk Road optik tolali aloqalariga ulanish orqali mamlakatni mintaqaning raqamli markaziga aylantirishdan katta manfaatdor ekanini bildirgan edi[8].

“China Sino-Pipeline International Company” MChJ 2019-yilda “Markaziy Osiyo-Xitoy” gaz quvurining to'rtinchi liniyasining (D liniyasi) Qirg'iziston qismini qurishni boshlagan. Mamlakat shimolida Xitoy kompaniyalari tomonidan ikkita neftni qayta ishlash zavodi – Qora-Balta (ishlab chiqarish quvvati yiliga 800 ming tonnaga yaqin) va To'qmoq shahrida (450 ming tonna) qurilgan. Neft xomashyosi taqchilligi tufayli bu korxonalarining hech biri to'liq quvvat bilan ishga tushirilmagan. Qora-Balta neftni qayta ishlash zavodi Covid-19 pandemiyasi avj olgan paytda o'z faoliyatini to'xtatgan edi va faqatgina 2021 yilning so'ngi choragida qisman ishga tushurildi.

Qirg'izistondagi kon va karerlarda Xitoyga tegishli 11 korxonalar ishlaydi. To'rtta kompaniya xitoylik investorlarga tegishli. Oltin qazib olish bo'yicha dunyoda uchinchi o'rinda turadigan Xitoyning TMK kompaniyasi “Zijin Mining Group” Qirg'izistondagi uchinchi yirik oltin koni bo'lgan “Taldibuloq Levoberejniy” konining operatori “Altinken” MChJning 60 foiz ulushiga egadir. “Taldibuloq Levoberejniy” 2015 yil iyul oyida tijorat maqsadlarida qazib olishni boshladi va 2019 yilda 133 335 untsiya oltin qazib oldi[8]. Qirg'iziston investitsiyalarni rag'batlantirish va himoya qilish agentligi 2019 yil iyun oyida Daren Group, Lingbao Gold Group va Full Gold Mining kompaniyalari bilan yangi oltin qazib olish zavodini qurish bo'yicha kelishuv shartnomasini imzoladi.

World Chinese Investment Monitor ma'lumotlariga ko'ra, “Bir makon, bir yo'l” loyihasi e'lon qilinganidan beri Tojikistonga kiritgan yagona Xitoy sarmoyasi 2019 yilda po'lat sanoatiga kiritilgan bo'lib, uning qiymati 540 million AQSh dollari tashkil etadi. Ayrim mahalliy manbalar 2019 yil aprel holatiga ko'ra, Xitoyning Tojikiston tashqi qarzdagi ulushi 50 foizdan oshagan bir davrda, Xitoyning Tojikistonga kiritgan jami sarmoyasi 2,03 milliard AQSh dollari tashkil qilganligini aytib o'tadilar[9]. Tojikistonda Xitoy kapitali ishtirokidagi 300 dan ortiq kompaniya ro'yxatga olingan. Bu sarmoyalarning asosiy qismi energiya, to'qimachilik, konlar va karerlar, qishloq xo'jaligi va neftni qayta ishlash sohasiga yo'naltirilgan.

Olingan kredit va grantlarni qaytarishdagi qiyinchiliklar tufayli Tojikiston “tabiiy resurslardan foydalanish evaziga sarmoya kiritish” sxemasini qo'llab kelmoqda. Bunday kelishuvlarga qaramasdan, Tojikiston milliy yalpi ichki mahsulotidagi tog'-kon sanoati (shaxtalar va karerlar) ulushi 2000 yildagi atigi 1 foizdan 2018 yilda 24,8 foizga o'sganini ko'rishimiz mumkin.

Tojikistonda Xitoyning 10 dan ortiq kompaniyasi qimmatbaho metallar qazib olish bilan shug'ullanadi, ulardan eng yiriki “Zerafshan Gold Company” Tojikiston-Xitoy qo'shma korxonasi. Bu qo'shma korxonalar mamlakatdagi jami oltin qazib olishning qariyb 70 foizini amalga oshiradi va kompaniya Tojikiston shimolidagi 300 ming gektar maydonda qazilma ishlarini olib borish huquqiga egadir. Xitoyning “Zijin Mining Group” kompaniyasi bir nechta konlarni (Taror, Jilau, Chore) o'zlashtirish uchun ushbu qo'shma korxonada 75 foiz ulushga ega. Bundan



tashqari, “Pakrut” oltin koni “China Nonferrous Gold” MChJ tomonidan o‘zlashtirilib kelinmoqda[10].

“TALCO Gold” – Tojikiston davlat alyuminiy kompaniyasi (TALCO) va Xitoyning “Tibet Huayu Mining” kompaniyasi o‘rtasidagi qo‘shma korxonalar. Har bir sherik ustav kapitalining 50 foiz ulushiga ega bo‘lib, yiliga 2,2 tonna oltin va 16 ming tonna surma ishlab chiqarish uchun 200 million AQSh dollari miqdorida sarmoya kiritgan. Bu “Talko Gold”ni Tojikistondagi ikkinchi yirik oltin qazib oluvchi kompaniyaga aylantiradi. Reuters ma’lumotlariga ko‘ra, oltin va surmani tijoriy ishlab chiqarishni boshlash 2020 yil mart oyida rejalashtirilgan edi, maqsad oxir-oqibat dunyodagi barcha surmaning o‘ndan bir qismini ishlab chiqarishga erishishdir. Biroq, ishlab chiqarishni boshlash kechiktirildi, chunki Tojikiston o‘z chegaralarini yopdi va koronavirus epidemiyasi sababli xorijliklarga ishlash uchun ruxsatnomalar berishni to‘xtatdi[11].

Yuqorida ta’kidlanganidek, Xitoy energetika sohasining turli sohalarida o‘zining nou-xau va tajribasini eksport qilishdan manfaatdor. 2020 yil boshida XXR Tojikiston bilan Zarafshon daryosida 275 MVt quvvatga ega elektr energiyasi ishlab chiqarish inshootini qurish bo‘yicha ikki bosqichli 550 million dollarlik loyiha bo‘yicha kelishuvga erishdi, bu loyiha Tojikiston bilan birga O‘zbekistonni ham elektr energiyasi bilan ta’minlash imkoniga egadir[12].

“Monitor of Chinese Investments in World” ma’lumotlariga ko‘ra, 2013-2020-yillarda Xitoyning O‘zbekistonga kiritgan sarmoyalari va shartnomalari jami 2,24 milliard dollarni, jumladan, ko‘chmas mulkka 720 million dollar, transportga 560 million dollar, kimyo sanoatiga 440 million dollar va energetikaga 340 million dollarni tashkil qilgan. O‘zbekistondagi manbalar so‘nggi uch yil ichida Xitoyning to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalari 3,9 milliard dollarni tashkil etgani[13] va hukumat 2025 yilga borib Xitoyning yillik sarmoyasini 5 milliard dollarga yetkazishni maqsad qilgani aytiladi[14].

2020 yil boshida O‘zbekistonda Xitoy sarmoyasi ishtirokidagi 1652 ta korxonalar faoliyat ko‘rsatgan (jami 16 foiz). Ulardan 531 tasi 2019 yilda tashkil etilgan, 120 dan ortiq kompaniyalar 100% xitoylik kapitalga ega[15].

O‘zbekistonda to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarni jalb qilish maqsadida Xorijiy investitsiyalarni qo‘llab-quvvatlash agentligi tuzilgan bo‘lib, erkin iqtisodiy zonalar rezidentlarini 10 yil muddatga, agar investitsiyalar hajmi 10 million AQSH dollaridan oshsa, 7 yilga, 5 milliondan 10 milliongacha bo‘lgan investitsiyalarni barcha turdagi soliqlardan ozod qilish haqida qaror chiqargan. 3 million dollardan 5 million dollargacha bo‘lgan investitsiyalar uchun 5 yilga va nihoyat, 0,3 million dollardan 3 million dollargacha bo‘lgan investitsiyalar uchun 3 yil muddatga. Potensial xitoylik investorlar bilan yaqinroq hamkorlik qilish maqsadida O‘zbekiston hukumati 2019 yil dekabr oyida O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligining Xitoyda vakolatxonasini ochish to‘g‘risida qaror qabul qilgan edi[16].

O‘zbekiston boshqa ko‘plab davlatlar qatori Xitoy bilan hamkorlikni “strategik xomashyo” deb atalmish mahsulotlarni (tabiiy gaz, mis, paxta tolasi, mineral o‘g‘itlar) sotishdan boshladi. Yana bir e’tibor gazni tashishga qaratildi. O‘zbekistonning o‘z uglevodorod resurslari hajmi unchalik katta bo‘lmasa-da, bu mamlakat Turkmanistondan Xitoyga gaz tranzitida muhim rol o‘ynaydi. Qozog‘iston orqali o‘tadigan amaldagi gaz quvuridan tashqari Turkmanistondan Xitoygacha bo‘lgan 210 km uzunlikdagi gaz quvurining D torli yangi uchastkasini qurish rejalashtirilgan[17].

Shuningdek, e’tibor (transport) ulanish va energiya masalalariga qaratildi. Masalan, China Railway Tunnel Construction Group kompaniyasi 2013-2016 yillarda 19 kilometrlik Qamchiq tunnelini qurish va temir yo‘llarni elektrlashtirish orqali Andijon-Pop-Angren-Toshkent temir yo‘li uchastkasini (OBOR yo‘nalishlaridan biri) obodonlashtirdi. 2020 yil oktabr oyida Xebey provinsiyasi (qo‘shni Pekin) va Toshkent o‘rtasida haftasiga kamida 12 ta poyezd Xebeydan jo‘naydigan muntazam temir yo‘l qatnovi ochildi[18].

O‘zbekiston-Xitoy hamkorligining istiqbolli loyihalari qatoriga Navoiy, Samarqand va Buxoroda elektr stansiyalari va shamol elektr generatorlarini qurish (720 million dollar), uglevodorod qazib olish (600 million dollar), O‘zbekiston-Qirg‘iziston-Xitoy transport koridorini yanada rivojlantirish, temir yo‘llarni qurish, Andijon-O‘sh-Irkeshtom-Qashg‘ar yo‘nalishida logistika markazlarini yaratish va Qamchiq avtomobil tunnelini qurish[14].

Markaziy Osiyo Barometri so‘rovlariga ko‘ra, 2019 yilda O‘zbekistonda respondentlarning 65 foizi milliy energetika va infratuzilmani rivojlantirishga Xitoy sarmoyasini “qattiq qo‘llab-quvvatlagan”. Qozog‘iston va Qirg‘izistonda tegishli ko‘rsatkichlar mos ravishda 7 va 9 foizni tashkil etdi. 2020 yilda O‘zbekistonda “qattiylik” tarafdorlar ulushi 48 foizgacha qisqardi. Shu bilan birga, Xitoyning rivojlanish loyihalari mamlakat tashqi qarzining oshishiga olib kelishi mumkinligidan “juda xavotirda” bo‘lgan O‘zbekistonlik respondentlar ulushida sezilarli 7 foizdan 25 foizgacha o‘shish kuzatildi[18].

## REFERENCES

1. Xitoy investitsiyalari. Qozog‘iston // <https://crudeaccountability.org/chinese-investments/kazakhstan/>
2. Xitoy Markaziy Osiyoda katta o‘rin tutadi// <https://carnegiemoscow.org/commentary/81402>
3. Qozog‘iston investitsion loyihasi // <https://invest.gov.kz/media-center/press-releases/stroitelstvo-kazakhstansko-kitayskikh-invest-proek>
4. Investitsiyalar va kulrang import uchun kurash: Qirg‘iziston va Xitoy o‘rtasidagi munosabatlar // <https://eurasia.expert/investitsii-i-seryy-import-otnosheniya-kyrgyzstana-i-kitaya/>
5. Xitoy global investitsiya kuzatuvchisi // <https://www.aei.org/china-global-investment-tracker/>
6. Qirg‘izistonga to‘g‘ridan-to‘g‘ri sarmoyalarning 33 foizi Xitoydan jalb qilingan // [https://24.kg/ekonomika/143108\\_33protsenta\\_pryamyih\\_investitsiy\\_vkyrgyzstan\\_privlekayut\\_izki\\_taya/](https://24.kg/ekonomika/143108_33protsenta_pryamyih_investitsiy_vkyrgyzstan_privlekayut_izki_taya/)
7. Qirg‘iziston: hokimiyat biznes muhitining ko‘k ko‘rinishidan uyg‘ondi // <https://eurasianet.org/kyrgyzstan-authorities-wake-up-to-business-climate-blues>
8. Nima uchun Markaziy Osiyo Xitoyning “Bir makon, bir yo‘l” loyihasiga pul tikmoqda?//<https://thediplomat.com/2018/08/why-central-asia-is-betting-on-chinas-belt-and-road/>
9. Xitoy Tojikistondagi iqtisodiyot ekspansiyasidan harbiy-siyosiyga// <https://ia-centr.ru/experts/andrey-knyazev/kitay-ot-ekonomicheskoy-ekspansii-v-rt-perekhodit-k-voenno-politicheskoy-poslesloviye-k-tadzhiksko-ki/>
10. Tojikiston. Yillik iqtisodiy hisobot 2019. Shveysariyaning Tojikistondagi elchixonasi, qarorgohi Nur-Sultonda// <https://www.s-ge.com/sites/default/files/publication/free/economic-report-tajikistan-eda-2019-12.pdf>
11. Xitoy-Tojikiston surma ishlab chiqarish loyihasi koronavirus tufayli kechiktirildi // <https://www.reuters.com/article/tajikistan-china-antimony-gold/chinese-tajik-antimony-project-delayed-by-coronavirus-idUSL8N2BO48C>
12. Energetika savdosi tojik-o‘zbek aloqalari uchun g‘alaba qozonishi mumkinmi? // <https://eurasianet.org/could-energy-trade-be-a-win-win-for-tajik-uzbek-ties>
13. Sinov yili. O‘zbekiston va Xitoy pandemiya davrida qanday qilib savdo-iqtisodiy munosabatlarni qurmoqdaSinov yili. O‘zbekiston va Xitoy pandemiya davrida qanday qilib savdo-iqtisodiy munosabatlarni qurmoqda // <https://podrobno.uz/cat/uzbekistan-i-kitay-klyuchi-ot-budushchego/god-ispytaniy-kak-uzbekistan-i-kitay-vystraiavayut-torgovo-ekonomicheskieto-nosheniya-vo-vremya-pande/>

14. O‘zbekiston Xitoydan jalb qilingan sarmoyalarning yillik hajmini 5 milliard dollarga yetkazmoqchi // <https://podrobno.uz/cat/uzbekistan-i-kitay-klyuchi-ot-budushchego/uzbekistan-nameren-dovesti-ezhegodnyy-obem-privlekaemykh-kitayskikh-investitsiy-do-5-mlrd-/>
15. COVID-19 pandemiyasi davridagi O‘zbekiston-Xitoy munosabatlari // <https://cabar.asia/en/uzbekistan-china-relations-during-the-covid-19-pandemic>
16. Xitoy va O‘zbekiston munosabatlari // [http://www.xinhuanet.com/english/2019-12/29/c\\_138663836.htm](http://www.xinhuanet.com/english/2019-12/29/c_138663836.htm)
17. Xitoy biznesi uchun brifing: Qirg‘izistondan mamnun emas // <https://eurasianet.org/china-business-briefing-not-happy-with-kyrgyzstan>
18. O‘zbekistonning Rossiya, Xitoy, Janubiy Koreya va Yaponiyaga nisbatan strategiyasida aloqa, energiya va transport. // <https://link.springer.com/article/10.1007/s10308-020-00589-w>
19. Нигманов, А. У. (2020). ХИТОЙДА YOQILGI-ENERGETIKA MAJMUASI VA TARMOQ RIVOJLANISHING GEOGRAFIK XUSUSIYATLARI. ГЕОГРАФИЯ: ПРИРОДА И ОБЩЕСТВО, 1(2).
20. Nigmanov, A. U. (2019). O ‘zbekistonda atom energetikasini rivolantirish muammolari va sohaning istiqbollari. Молодой ученый, (42), 323-325.
21. Юлдашев, А. С. У. (2019). Региональное развитие КНР: на примере социальноэкономического развития Западного Китая. Региональные проблемы преобразования экономики, (4 (102)), 34-40.
22. Юлдашев, А. (2022). ОСНОВНЫЕ ПОКАЗАТЕЛИ И ПОТЕНЦИАЛ ТОРГОВО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО СОТРУДНИЧЕСТВА МЕЖДУ УЗБЕКИСТАНОМ И КИТАЕМ. Sharq ma'shali/Vostochnyy fakel, 14(1), 136-144.